ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UO‘K: 373. 3:51 **DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2062**

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNI TASHKILLASHTIRISH HAQIDA

Sh.M.Tuxtayeva
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
shaxnozasadikova06@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning bosh maqsadi barkamol insonni tarbiyalashga qaratilganligi bilan juda qiymatlidir. Shu kungacha bu islohotlarning bosh maqsadi o‘rta ta’lim maktablarini tamomlab chiqayotgan bitiruvchilarning imkon qadar ko‘p qismini OTMlarga kirish masalasiga qaratilgan bo‘lsa, 2023-yildan boshlab OTMlarning bitiruvchilari sifatli, yutuq salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislar bo‘lib yetishishlari masalasiga qaratilgandir. Ta’limning sifati uning asosiy komponentlari bo‘lgan besh ustunning qay tartibda o‘quvchi va talabalarning ongiga singdirilishiga ko‘pdan ko‘p bog‘liqdir. Bu komponentlardan ikkitasi, ya’ni o‘qitish metodlari va vositalari boshqa komponentlarga qaraganda ko‘proq inson omili bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan to‘g‘ri foydalanish o‘qituvchining fanning nazariy qismini qanchalik ongli o‘zlashtirgani va uni tinglovchining kundalik amaliy hayotlari bilan bog‘lashlik pedagogik mahoratga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, innovatsion ta’lim, integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim, fanlararo aloqadorlik, o‘qitishning komponentlari, ta’lim, ta’limning sifati, o‘qitish vositalari, o‘qitish metodlari.

Об организации интегрированного обучения на уроках математики для учителей начальных классов

Аннотация. Основная цель реформы образования, проводимой в нашей стране, - воспитать всесторонне развитую личность. До сих пор основной целью этих реформ является привлечение как можно большего числа выпускников общеобразовательных школ к поступлению в высшие учебные заведения, но с 2023 г. они будут сосредоточены на вопросе становления выпускников высших учебных заведений специалистами с качественным, успешным потенциалом. Качество образования во многом зависит от того, в каком порядке внедряются в сознание школьников и студентов пять столпов, являющихся его основными составляющими. Два из этих компонентов, а именно методы и средства обучения, в большей степени связаны с человеческим фактором, чем другие компоненты, и их правильное использование зависит от того, насколько хорошо преподаватель усвоил теоретическую часть предмета и насколько хорошо ее усвоил слушатель. связь с повседневной практической жизнью зависит от педагогического мастерства.

Ключевые слова: Инновация, инновационное образование, интеграция, интегрированное образование, межпредметная связь, компоненты образования, образование, качество образования, средства обучения, методы обучения.

On the organization of integrated education in mathematics lessons for primary class teachers

Abstract. The main goal of the educational reforms being carried out in our country is to educate a well-rounded person. Until now, the main goal of these reforms is to get as many graduates of secondary schools as possible to enter higher education institutions, but from 2023, it will focus on the issue of higher education graduates becoming specialists with high-quality, successfully potential is directed. The quality of education largely depends on the order in which the five pillars, which are its main components, are inculcated in the minds of pupils and students. Two of these components,

namely, teaching methods and tools, are more related to the human factor than other components, and their correct use depends on how well the teacher has mastered the theoretical part of the subject and how well the listener has learned it. connection with everyday practical life depends on pedagogical skills.

Key words: Innovation, innovative education, integration, integrated education, interdisciplinary communication, components of education, education, quality of education, teaching tools, teaching methods.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston Respublikasi xalqiga murojaatnomasida “...Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlash ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon. Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘ligi joyida bo‘lish, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz.

Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li” [1] deb ta’kidlashi bilan biz OTM professor-o‘qituvchilarining ta’lim sohasidagi hozirgi kundagi asosiy vazifamizni nimalardan iborat ekanligini belgilab berdi. Bu ko‘rsatib o‘tilgan vazifalardan biri ta’limning barcha bosqichlarida ta’lim sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish masalasidir.

Bu aytilyotgan ta’limning sifat masalasiga nafaqat ta’lim oluvchi yoki ta’lim beruvchining xohish istagiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki u ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik omillarga ham bog‘liq masaladir.

Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir. Masalaning bunday qo‘yilishidan kelib chiqib har tomonlama rivojlangan, ya’ni jismonan baquvvat, ham aqlan yetuk insonni tarbiyalash yangi O‘zbekiston davlatining ichki siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari ta’limning barcha bosqich xodimlarining ish haqlarini bir necha marta oshirdi. Ta’lim harajatlarini har yili tinmay oshirib kelmoqda. Ta’limning sifat ko‘rsatgichini oshirsh maqsadida uning vositalari bo‘lgan eng zamonaviy texnikalar bilan boyitilmoqda. Bu borada biz ta’lim beruvchilarning asosiy bajaradigan vazifalarimiz majburiy ta’limning birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga yuksak salohiyatli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlab berishdan iboratdir.

Pedagogika institutlarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlaydigan fakultet talabalariga nima uchun “Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi” va “Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi” fanlari o‘qitilishidan ko‘zlangan asosiy maqsadni aniqlab olish kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatilayotgan matematik materiallar uchta mustaqil arifmetika, algebra va geometriya fanlarining eng sodda tushunchalaridan iborat bo‘lib, ular bog‘chalarda o‘rgangan matematik materiallarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Matematika fanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri u doimiy takrorlashni talab etadi. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitilishing birinchi sababi matematik materiallarni o‘rganishning mantiqiy ketma-ketligi buzilmasligi va majburiy ta’limning ikkinchi bosqichi bo‘lgan to‘liqsiz o‘rta (5-9-sinf) maktab matematik materiallarini to‘liq o‘zlashtirib imkoniyatini yaratishdan iborat bo‘lsa, ikkinchidan bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini asosiy mutaxassislik fanining nazariy asoslarini va uni o‘qittirish metodikasini yaxshilab o‘zlashtirib olgan mutaxassislarni tayyorlashdir.

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yuqorida aytib o‘tilgan “Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi” va uning amaliy qismi bo‘lgan “Boshlang‘ich ta’limda matematik o‘qitish metodikasi fanlarining matematik materiallaridan qanday o‘qitilishi ularning kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yosh pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib qanday usullardan foydalanish metodikasi bilan tanishadilar.

Talabalar davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqib ikki matematika fani materiallarining avval nazariy va keyin amaliy qismini yaxshilab o‘rganishlari talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sinf o‘quvchilarining matematik bilimlari va matematik materiallarning murakkablik darajalaridan kelib chiqib hozirgi kunda ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlaridan biri - kombinatsiyalashgan dars (bir necha metodlarning aralashmasidan tarkib topgan dars) formasidan foydalaniladi. Bu yerda o‘qituvchining asosiy vazifasi darsda qanday metodlardan foydalanishni zarurati mavjudligi va bu metodlar birikmasida qaysi metod yetakchi va qaysilari unga yordamchi bo‘lishi kerakligini aniqlab olib, so‘ngra shunga qarab dars strukturasini tuzib olishdir. Agar dars strukturasi yaxshi tuzilgan bo‘lsa, u darsning sifatini kafolatlovchi faktorlardan biriga aylanadi.

Buyuk chex metodist olimi Y.O.Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida ta’limning “Sinf-dars” formasini ham nazariy ham amaliy jihatdan ta’limning eng optimal formasi ekanligini asoslab bergan.

Hozirgi zamon fan-texnikasining juda tez suratlar bilan rivojlanishi natijasida u ta’lim-tarbiyaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Keyingi uch yillikda, ya’ni pandemiya davrida ta’limning an’anaviy usullaridan biroz voz kechib yangi o‘qitish formalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yishga majbur bo‘ldik. Bu qiyinchiliklarni hammamiz hamjihat bo‘lib, bir-birimizga doimiy ravishda motivatsiya berib, qo‘llab-quvvatlashimiz natijasida jahon davlatlari ichida eng kam talofat ko‘rgan davlatlardan biri bo‘ldik. Shunday qiyinchilik sharoitida ham ta’lim-tarbiyani to‘xtatganimiz yo‘q, o‘qitishning noan’anaviy usullaridan foydalanib yoshlarga ta’lim-tarbiyani to‘liq ravishda amalga oshirishga muvofiq bo‘ldik.

Buning uchun Yangi O‘zbekistonning davlat rahbariga, Xalq va Oliy ta’lim vazirligi xodimlariga biz ota-onalar va o‘qituvchilar o‘zimizning chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Yangi O‘zbekistonning yosh avlodiga keyingi yillarda ta’lim-tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan Finlandiya, Singapur, Malayziya, Yaponiya va Rossiya kabi mamlakatlarning bu sohadagi tajribalaridan keng foydalanib o‘qitish vositalarining yangi avlodini yetkazib berish kerakliligi “Milliy dastur”da ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Hayotimizning barcha sohalaridagi tub islohotlar ta’lim-tarbiyaga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarning kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yosh pedagogik-psixologik o‘zlashtirish qobiliyatlaridan kelib chiqib, o‘ta ta’sirchan va qiziqarli metodlardan ko‘proq foydalanishni zamonning o‘zi talab qilmoqda. Shunday metodlardan biri fanlararo integratsiyalashgan ta’lim metodidir. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, integratsiyalashayotgan fan dasturlarini yaxshi o‘rganib ulardagi mazmunan didaktik talablar nuqtayi nazaridan bir-birini to‘ldiruvchi, mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan mavzular tanlab o‘quvchiga bayon qilishdir.

O‘qitishning bunday integratsiyalashgan formasiga o‘tishning ba’zi bir sabablari bor. Bunday sabablardan biri zamonaviy fan-texnikaning tez sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida ta’lim-tarbiyada foydalaniladigan fanlar oshib borib, o‘qitiladigan dars soatlarining ko‘payishidan ta’lim-tarbiya olayotganlarga ortiqcha o‘quv yuklamasini hosil qilib, u ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa fanlardagi o‘zaro mazmunan yaqin va bir-birini to‘ldiruvchi mavzularni o‘zaro integratsiyalashgan holda bir soatda o‘tish usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ikkinchi sabablaridan biri boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan ko‘p fanlarni bitta o‘qituvchining o‘tish imkoniyatining mavjudligidan kelib chiqadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan matematika fani materiallarini o‘rgatish biroz qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Bunday qiyinchiliklarning paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biri matematika fanining biroz abstraktligidadir. Bu esa bu fanni o‘rganuvchilardan o‘tkir zehnlilikni , o‘ta xushyorlikni va teran aqllilikni talab etadi.

O‘qituvchining bu qiyinchilikni bartaraf qilishdagi o‘rni katta bo‘lib, o‘zidagi bor pedagogik salohiyati, mahoratidan va barcha imkoniyatlardan foydalanishi kerak bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, “Matematika’’ fani shunchalik jiddiy fanki, uni o‘rganishni osonlashtiruvchi juda oz imkoniyatdan ham foydalanishni esdan chiqarmasligimiz kerak. Bu masala kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar haqida borar ekan, uning qiymati bir necha marta oshishi biz hammamizga ma’lum.

Oldin eslatib o‘tganimizdek, boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan ko‘p fanlarni boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zi o‘tganligi sababli, integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish unga ancha oson kechadi. Chunki u barcha fan dasturlarida mavjud mavzularni yaxshi o‘rganib, ulardan qaysi birlarini integratsiyalashgan holda o‘quvchilarga yetkazishni oson o‘zlashtirib oladi. Faqat o‘qituvchi integratsiyalashayotgan mavzularning didaktik talablaridan kelib chiqib bitta maqsadga bo‘ysundirilgan integratsiyalashgan dars strukturasini ishlab chiqish masalasini hal qilib olishi lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlaydigan fakultet o‘quv rejalari turli yillarda zamon talablaridan kelib chiqib turlicha nomlanib kelingan. Masalan,

a) o‘tgan asrning 50-70-yillarida iste’molda bo‘lgan “Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” deb nomlanuvchi o‘quv rejasi asosida oliy ma’lumot olganlarga ikki yo‘nalishda ham birdan faoliyat yurituvchi “Pedagogika va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi” maqomiga ega bo‘lganlar;

b)70-90-yillarda o‘quv rejasi “Boshlang‘ich ta’lim va milliy guruhlarda rus tili o‘qituvchisi” mutaxassisligi berilgan;

d) keyingi yillardagi o‘quv rejalari “Boshlang‘ich ta’lim” deb atalib bu reja bo‘yicha oliy ma’lumot olganlar yuqoridagidek musiqa va tasviriy san’at fanlaridan boshqa barcha fanlardan dars berish huquqiga ega bo‘lganlar.

Bu masalaga batafsil to‘xtalishimizdan maqsad boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zi o‘qitayotgan fanlardan tashqari boshqa fanlararo integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish uchun boshqa fan o‘qituvchilari bilan bomaslahat ish olib borishlari zarurati tug‘iladi.

Ulug‘ metodist olimlarimiz aytib o‘tganidek, fanni o‘rganishga bo‘lgan zarurat, uni o‘rganishga bo‘lgan majburiyatdan kuchliroq bo‘ladi. Bu degani u yoki bu fan materiallarini, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilariga majburlab o‘rgatib bo‘lmaydi. Agar fan materiallari hayotiy zaruratdan kelib chiqib, ya’ni matematik materiallarni o‘quvchilarning kundalik amaliy hayotlaridan olingan matematik muammolaridan kelib chiqib o‘rgatilsa, ular bu mavzularni oson o‘zlashtirib oladilar va darsning sifati kafolatlanadi.

Integratsiyalashgan ta’lim ham shu zarurat asosida tashkillashtirilsa, darsdan ko‘zlangan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadga osonroq erishiladi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi integratsiyalashgan darslarni tashkil etishni boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladigan matematika fani tarkibiga kiruvchi uchta fan (arifmetika, algebra va geometriya) materiallari mavzularini o‘rganib bu mavzularni qanday holatda integratsiyalashtirish mumkinligini aniqlashtirib olish muhim. Bu mustaqil uchta fan materiallarini o‘rganishda qaysi fan materialini fanning nazariy qismi deb, boshqa fandan unga monand mavzuni darsning amaliyotga tadbig‘i sifatida qabul qilish mumkinligini aniqlab, integratsiyalashgan ta’lim shu asosda amalga oshirish kerakligini doimo yodda saqlashimiz kerak bo‘ladi.

Hozir biz boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ba’zi bir fanlar o‘rtasida integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish bo‘yicha ba’zi bir o‘z fikr-mulohazalarimizni aytib o‘tamiz:

1. Matematika va tabiatshunoslik fanlari o‘rtasidagi fanlararo integratsiyani “Matematika” fanidagi “Vaqt va uning o‘lchov birliklari” va “Tabiatshunoslik” fanidagi “Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari” mavzulari o‘rtasidagi chiroyli va qiziqarli integratsiyalashgan darsni tashkil etish mumkin. Bu integratsiyalashgan darsning nazariy qismi tabiatshunoslik fani materiali bo‘lsa, uning amaliy qismi matematika fanida vaqt o‘lchov birligi bo‘yicha o‘quvchilar ega bo‘ladigan amaliy ishlar bo‘ladi. Bu integratsiyalashgan darsning sifati bir soatlik dars strukturasining qanchalik optimal tuzilishiga, o‘qitish vositalari (ko‘rgazmali qurollar) va o‘qitish metodlaridan foydalanishi va o‘qituvchining bilim salohiyati hamda pedagogik mahoratiga bog‘liq.

Boshlang‘ich ta’lim matematika va tabiatshunoslik fan o‘rtasida sifatli integratsiyalashgan darslar tashkillashtirish imkoniyatlari ko‘p va rang-barangdir. Xuddi shuningdek, boshlang‘ich ta’limda o‘qitilayotgan boshqa fanlar o‘rtasida ham integratsiyalashgan darslarni tashkil etish imkoniyatlari mavjud, ularni amalga oshirish uchun o‘qituvchida xohish bo‘lishi kerak.

Bizni o‘rab turgan olamning doimiy o‘zgarishdaligi xilma-xil bo‘lib, ular o‘z ichki qonuniyatlari va tashqiy tabiiy kuchlarning ta’siridaligidandir.

Inson bu olamning eng aqlli jonzoti bo‘lib, u bu o‘zgarishlar davomida jismonan baquvvat, aqlan barkamol bo‘lib boraveradi. Bu o‘zgarishlarning tub mohiyatini anglab olish uchun o‘z atrofida bo‘layotgan narsa va hodisalarning xossalarini yaxshi o‘rganib olishlari kerak bo‘ladi. Shunday hodisalardan biri vaqt tushunchasidir.

Vaqt tushunchasi ham boshqa miqdorlar tushunchalari kabi narsa va hodisalarning ma’lum bir xossalarini ifodalaydi.

Agar masalan, og‘irlik tushunchasi narsaning vaznini bildirsa, uzunlik tushunchasi o‘lchamlarni yoki vaqt tushunchasi ularning bir ko‘rinishidan ikkinchi ko‘rinishga o‘tish muddatini bildiradi.

Fanda bu tushunchalar umumiy holda miqdorlar deb atalib har xil adabiyotlarda har xil nomlanadi. Masalan kattaliklar, miqdorlar, ismli sonlar nomlanadi.

Miqdorlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga matematika darslarida ularning matematik bilim darajalaridan kelib chiqib ketma-ket, bosqichma-bosqich o‘rgatiladi.

Vaqt tushunchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan biroz qiyinchilik bilan o‘zlashtiriladigan tushunchadir. Bunga ikkita narsani sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Aytganlarimizning isboti sifatida quyidagi misollarni keltirishimiz mumkim. Masalan,

1. Birinchidan bu vaqt tushunchasi tabiat hodisalari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan vaqt o‘lchov birliklarining turli sanoq sistemasida ifodalanishida deb o‘ylaymiz.

Vaqt tushunchasining yana bir o‘ziga xos xossalaridan biri bu inson ko‘ziga ko‘rinmaydi va doimo oldinga harakatlanuvchi tushunchadir. O‘tgan vaqtni ortga qaytarib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz vaqting ketdi, baxting ketdi deb bejizga aytmaganlar.

O‘qituvchi yuqorida aytib o‘tgan qiyinchilikni bartaraf qilishi uchun integratsiyalashgan darsdan foydalanishni maslahat bergan bo‘lar edik.

Agar boshlang‘ich sinfning matematika va tabiatshunoslik darsliklari materallarini ko‘zdan kechirganda ikkalasida ham vaqt tushunchasi bilan bog‘liq tushunchalar mavjudligiga ko‘zimiz tushadi.

Tabiatshunoslik darsligida o‘lchov birliklarining (sutka, oy va yil) hosil bo‘lishi o‘rganilgan bo‘lsa, matematika darsligida esa bu tushunchalarni o‘quvchilarga o‘rgatish metodikasi haqida so‘z yuritiladi.

O‘qituvchi har ikkala darslikda keltirilgan mavzularni bitta umumlashgan dars sifatida integratsiyalashgan holda o‘rgatish imkoniyatiga egadir.

Umumlashgan bu darsning kengaytirilgan darsning qanday tuzishni har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘ziga qo‘yib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har bir o‘qituvchi avvalo o‘quvchilarning matematik bilim darajalaridan va o‘zining nazariy bilim salohiyatidan va amaliy pedagogik mahoratidan kelib chiqib bu mavzularni o‘quvchilarga o‘rgatishga harakat qiladi.

Bundan tashqari o‘qituvchi vaqt o‘lchov birliklaridan sutka, oy va yil tabiat hodisalari bilan bog‘liqligini va qolganlari (minut, sekund, soat, hafta va hokazo) shu uchta o‘lchovlariga monand insonlar tomonidan o‘ylab qaralganligini o‘quvchilarga ko‘rgazma asosida tushuntirishlari ham kerak bo‘ladi.

Bu uchta tushuncha bevosita oy, yer va quyosh planetalarining harakatlari bilan bog‘liq bo‘lganliklari uchun ko‘rgazmalilikda yana ularning harakat trayektoriyalarini (hamma planetalarning harakatlari akslantirilsa o‘quvchilar ularni bir darsda o‘zlashtirishda qiynalishadi) ko‘rsatish bilan chegaralanishi lozim bo‘ladi.

2. Uchinchi sinf texnologiya [9] darsligida berilgan Rabotatexnika ikkinchi bobida “geometrik shakllardan robot hosil qilish ” deb nomlanuvchi darslarda bevosita ikkita fan matematika [4] va texnologiya fanlari mavzulari bo‘yicha integratsiyalashgan darsni tashkil etish mumkin.

O‘quvchilar bu vazifani bajarishda uchinchi sinf matematika darsligidagi “Geometrik shakllar” mavzusidagi materiallardan foydalanib bu ikki fan darslarining integratsiyasini hosil qiladi. Bu integratsiyalashgan darsning nazariy qismi geometrik figuralar va ularning xossalaridan iborat bo‘lsa, darsning amaliy qismi geometrik shakllardan foydalanib robot yasash ishlaridan iborat bo‘ladi.

3. To‘rtinchi sinf o‘quvchilari “Texnologiya” [7] fanida asosan narsa va predmetlarning model va maketlarini yasash ishlarini bajarishni o‘rganadilar.

O‘quvchilar bunday yasash ishlarini o‘rganish davomida ko‘plab geometrik figura va jismlardan hamda ularning xossalaridan foydalanishlariga to‘g‘ri keladi. Bunda ularga matematika [6] fani yordamga keladi. Bu matematika darsligida berilgan tekst va fazoviy jismlar haqida berilgan ma’lumotlardan foydalanadilar. Bunday integratsiyalashgan ta’limning nazariy qismi matematika fani hisoblansa, uning amaliy qismi geometrik figura va jismlarning xossalaridan foydalanib shu jismlarning model va maketlarini yasash amaliy ishlardan iborat bo‘ladi.

Qisqa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda fanlararo integratsiyalashgan ta’limning ahamiyati: birinchidan, o‘qishni bevosita o‘quvchilarning kundalik amaliy hazillari bilan boshlash imkoniyati yaratiladi; ikkinchidan, o‘qituvchi va o‘quvchilarning akademik soatlari tejaladi; uchinchidan, o‘quvchilarning har ikkala fan materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va natijada darsning sifat ko‘rsatkichi avvalgiga qaraganda oshadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni nazariy va amaliy asoslari isbotlab berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishni xohlagan o‘qituvchilar bunday darslarning ishlanmasini yozuvchilarga R.Mavlyanova va N.Raxmankulovalarning “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Innovatsiya va integratsiya” [5] deb nomlanuvchi o‘qib va o‘rganib chiqishni tavsiya qilgan bolardik.

Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z qiziqishi bilim va pedagogik salohiyatidan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’limning qaysi sinfda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishni aniqlab olish kerak. Buning uchun esa avvalo integratsiyalashtirilayotgan fanlar mavzularini tanlash va shu mavzularni o‘zida kas ettirgan dars ishlanmalarini yozib chiqish kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. – Samarqand, Zarafshon, 2020.
2. “Milliy dastur”. –Toshkent, 2020.
3. Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standartlari. - Toshkent, 2020.
4. Matematika (3-sinf darsligi), L.O‘rinboyeva va boshqalar. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2020. 126-130 betlar
5. R.Mavlyanova, N.Rahmankulova, Boshlang‘ich ta’limda integratsiya va innovatsiya.
6. Matematika (4 – sinf darsligi), Bikbayeva N.U. O‘qituvchi Toshkent 2020 47 bet.
7. Texnologiya (4 – sinf darsligi), A.Mannopova, M.Sayfurov O‘qituvchi Toshkent 2020 102-120 betlar.
8. Respublika ta’lim markazi, Toshkent 2022, 94-102 betlar.
9. Texnologiya (3 – sinf darsligi), X.Sanakulov, D.Abdisva Respublika ta’lim markazi, Toshkent 2022 15-bet.
10. Tabiatshunoslik (4 – sinf darsligi), A.Rahmanova va boshqalar.Sharq, Toshkent 2020 7-28 betlar.